www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

SHAHAR EKOLOGIYASINI OPTIMALLASHTIRISH
(Jizzax shahri misolida)

Shamsiyev Shaxboz Sirojiddin o'g'li
Jizzax politexnika instituti
521-21MECHJ va A guruh talabasi
Kamolova Shaxnoza Meliboevna
Jizzax politexnika instituti
"Ekologiya va atrof muhit muhofazasi"
kafedrasi katta o'qituvchisi.
Shaxnozaopa73@gmail.com

Annotatsiya. Jizzah shaharning atmosfera havosiga yiliga o'rtacha 28-30 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar tashlanadi, bu esa Respublika bo'yicha yalpi tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalarning 0,9 foizini tashkil etadi. Shaharda ham sanoatda, ham transportda ifloslantiruvchi moddalarni tashlanishini kamayishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi chang tozalash uskunalarining samaradorligiga almashtirilishi, sanoat ishlab chiqarishi hajmini qisqarishi, avtotransport vositalarining zararsiz gaz yoqilg'isiga o'tkazilishi va shahar transportining yangi zamonaviy transportlar bilan to'ldirilishidir.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, ekologik toza, texnologiya, muammo, chang tozalash uskunalari, xavfsizlik, ekologik.

Kirish. Jizzax shahri Sangzor daryosining qo'yi qismi, Jizzax viloyatining tog', qiya tog' yon bag'ridagi tekislik xududida joylashgan. yer maydoni – 100 kv.km, aholisi – 150 ming kishidan ziyodroq. Jizzax shahri va uning atrof iqlimi –kontinental, o'zining sovuq qishi va jazirama quruq yozi bilan ajralib turadi.

Atmosfera havosini sanoat korxonalaridan tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalardan, yer osti va yer usti suvlarini oqova suvlardan muhofaza qilish hozirgi zamonning dolzarb masalalridan biri bo'lib, umumjahon ahamiyatiga egadir. Atrof muhitning chiqindilar va oqova suvlar bilan ifloslanish jarayonini o'rganish eng muhim yunalishlardan biri hisoblanadi.

Atrof muhitni ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilardan, oqova suvlardan, atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalardan muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish muammolari bilan uzviy bog'liqdir.

Inson dunyo yuzini ko'rgandan boshlab atrof muhitni o'zi iste'mol qilgan mahsulotlar chiqindilari bilan, oqova suvlar bilan, atmosfera havosini har xil ifloslantiruvchi moddalar bilan ifloslantirib tabiatga qanchalik zarar keltirayotganini his qilgan holda bu vaziyatni muvofiqlashtirish maqsadida ko'p urinishlar, loyihalarni hayotga joriy qildi, lekin XXI asrning bo'sag'asida bu muammolarni to'lig'icha hal qila olmadi.

Masalaning qo'yilishi va tadqiqot usuli. Shahar aholisining o'sishi, cheklangan hududda sanoatning to'planishi, aholi istiqomad qiladigan hududlarda, ayniqsa yirik shaharlarda ekologik sharoitlarning yomonlashuviga sabab bo'lmoqda.

Shaharning atmosfera havosiga yiliga o'rtacha 28-30 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar tashlanadi, bu esa Respublika bo'yicha yalpi tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalarning 0,9 foizini tashkil etadi. Shaharda ham sanoatda, ham transportda ifloslantiruvchi moddalarni tashlanishini kamayishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi chang tozalash uskunalarining samaradorligiga almashtirilishi, sanoat ishlab chiqarishi hajmini qisqarishi, avtotransport vositalarining zararsiz gaz yoqilg'isiga o'tkazilishi va shahar transportining yangi zamonaviy transportlar bilan to'ldirilishidir.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Har bir shaharga tegishli bo‘lgan muammolardan biri chiqindilar masalasidir. Har yili shaharda aholidan 50 ming tonna maishiy chiqindilar, tashkilot va korxonalardan 2,8 ming tonna qattiq va 0,248 ming tonna (toksik) zaharli ishlab chiqarish chiqindilari hosil bo‘ladi. Shaharda hal etilmagan masalalardan biri chiqindilarni vaqtida chiqarmaslikdir. Jizzax shahar fauna va florasi o‘ziga xosdir. Shahar mahallalarida mavjud daraxtlar va ularni sug‘orish uchun yer usti suv ariqlari teng taqsimlanmagan.

Jizzax shahri kuniga 28,8 ming m^3 ga yaqin ichimlik suvi iste'mol qiladi. Buning hammasi yer osti suv manbalaridan olinadi. Ichimlik suvining tanqisligiga qaramay shaharda uni boshqa maqsadlarda ishlatilishiga yo‘l qo‘yilmoqda. Keyingi yillarda ichimlik suvlaridan avtomashinalarni yuvish, saunalar uchun, qurilish materiallarini ishlab chiqarishda ishlatilishi kuzatilmoqda.

Zeroki bu maqsadda qayta tozalangan texnik yoki ariq suvlaridan foydalanish mumkin. Ko‘pgina avtoyuvish joylarida suv aylanish sistemasi yo‘q, ishlatilgan, ifloslangan oqova suv qayta tozalanmasdan kanalizatsiya tarmoqlariga, ariq va kanallarga tashlanmoqda.

Yillar davomida “Zilol” mahallasining kanalizatsiya tizimini shahar “Suvoqova” korxonasining tizimi magistral tarmog‘iga ulash masalasi hal qilinmay kelinmoqda. Natijada oqova suvlar tozalanmasdan tabiiy muhitga tashlanishi sodir etilmoqda.

Atrof tabiiy muhitni chiqindilardan, oqova suvlardan, atmosfera havosining ifloslantiruvchi moddalar bilan ifloslanishini kamaytirish maqsadida quyidagi muhim masalalarni hal qilish lozim bo‘ladi:

- Bosqichma-bosqich etillangan benzindan foydalanishni to‘xtatish. Avtotransport vositalarini ekologik xavfsiz yoqilg‘i turlariga to‘liq o‘tkazish;
- Shahar avtotransport parkini jahon ekologik xavfsizlik standartlari talabiga javob beradigan vositalar bilan yangilash, bosqichma-bosqich me'yor talablariga o‘tishni ta'minlash;
- Faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash, shahar korxonalarida yangi zamonaviy tozalash tizimini joriy etish, eskirgan chang-gaz tozalash uskunalarini almashtirish;
- Shaharning perspektiv rivojlanishini hisobga olgan holda “Suvoqova” korxonasining ekspluatatsiya va modernizatsiyasini ta'minlash. Shahar hududidagi oqova suvlarning ochiq suv havzalariga chiqarib tashlashning oldini olish maqsadida 100 % kanalizatsiya bilan ta'minlash. Shahar korxona va tashkilotlariga yangi ilmiy tadqiqotlar tizimini hamda aylanma suv ta'minotini aktiv singdirish. Aylanma suv ta'minoti bo‘lmagan avtoyuvishlarning faoliyatini to‘xtatish;
- Sangzor daryosi, shahar hududidan oqib o‘tayotgan ariqlar qirg‘oqlarida ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini o‘tkazish ishlarini tashkillashtirish;
- Shahar hududida, mahallalarda vaqtincha chiqindi saqlash joylarida to‘plangan maishiy chiqindilarni, ishlab chiqarish va sanoat korxonalaridagi ishlab chiqarish chiqindilarini o‘z vaqtida shahar chiqindixonasiga olib borib joylashtirish;
- Keng jamoatchilik o‘rtasida, barcha ta'lim muassasalarida, korxona va tashkilotlarda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish borasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish lozimdir.

Xulosa

Jizzax shahar ekologiyasini optimallashtirish uchun bir qancha muhim tadbirlarni amalga oshirish: Toza ichimlik suvidan oqilona foydalanish, Jizzax shahar “Oqova suv tozalash inshoati”ni to‘liq samarada ishlashini ta'minlash, chiqindilarni o‘z vaqtida chiqindixonaga olib borib joylashtirish, shahardagi barcha mahallarni obodonlashtirish ko‘kalamzorlashtirish

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

ishlarini jadal olib borish, atmosfera havosini muhofaza qilish (chang-gaz tozalash uskunalarini amalga joriy qilishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, avtomobillarni gazli yonilg‘iga o‘tkazish, harakat tarkibini yangilash, bug‘xona gazlari tashlamalarini qisqartirish milliy dasturini amalga oshirish) tadbirlarini bajarish natijasida umuman atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi ekologik holat barqarorlashishi tamoyili kuzatilmoqda. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini texnik qayta jihozlash, yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek ifloslantiruvchi moddalarni atmosferaga chiqarishni barqarorlashtirish va kamaytirishga erishish zarurdir.

Adabiyotlar

1. Луканин В.Н., Трофименко Ю.В. Промышленно – транспортная экология. – М.: Высшая школа, 2001. – 273 с.
2. Белов П.С., Голубева И.А. Экология производства химических продуктов из углеводородов нефти и газа. – М.: Химия, 1991. – 256 с.
3. Родионов А.И., Клушин В.Н., Торочешников Н.А. Техника защиты окружающей среды. – М.: Химия, 1989. – 512 с.
4. Муравёва С.И., Казнина Н.И., Прохорова Е.К. Справочник по контролю вредных веществ в воздухе. – М.: Химия, 1988.